

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70210401 – Dizayn magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024

O'zR OTFIV
Buyruq № 277
2024 yil "01" 08

ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" 08 dagi 277 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	7
	Bibliografik ma'lumotlar	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

70210401 – Dizayn magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

70210401 – Dizayn magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, san'at sohasiga yo'naltirilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, loyخالashtirish institutlari, shahar qurilishsozlik, xususiy ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- Davlat va nodavlat loyiha tashkilotlari,
- loyihalash institutlari,
- dizayn studiyalarida dizayn-loyihalarni yaratish hamda ularni asoslash,
- soha bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;

- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70210401 – Dizayn mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilish;

dizayn sohasini rivojlantirish negizida amaliy masalalarini yechish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha modellar va metodlarni tadqiqot qilishi va ishlab chiqishi;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy ish yaratishda sohaga doir dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy o'rganish bo'yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo'lish;

xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda ishtirok etish;

ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;

turli dizayn asarlarining funktsionalligi, estetikasi, tejamliligi hamda boshqa sifatleri bo'yicha ma'lum uslubiyatlar asosida tadqiqod ishlarini bajarishda ishtirok etish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratishi va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

dizayn konsepsiyasini tuzish, dizayn obyektlrini loyihalash;

ishlab chiqarish sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tatbiq qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

elektron o'qitish usullarini egallashi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'z faoliyatida qurilish sohasiga oid meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

kasbiy sohasidan kelib chiqib turli ashyolardan dizayn obyektlarini yaratish, dizayn-loyihani ishlab chiqish va uning asosnomasini tayyorlash;

dizaynning turi va sohasidan kelib chiqib ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		Majburiy fanlar	240	8	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
Interyer dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	ZDQK1208	Zamonaviy dizaynda qurilish konstruksiyalari	240	8	1,2
1.04	DNvM1208	Dizayn nazariyasi va metodologiyasi	240	8	1,2
1.05	BL1318	Badiiy loyihalash	540	18	1,2,3
1.06	IvJ1312	Interyer va jihoz	360	12	1,2,3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	2,3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	2,3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, interyer dizayner			
Libos va gazlamalar turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	KL 1324	Kreativ loyihalash	720	24	1,2,3
1.04	TMBL 1212	Turli materiallarda badiiy loyihalash	360	12	1,2
1.05	MDTM 1104	Moda dizaynida tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.06	FM 1106	"Fashion" marketing	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	2,3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	2,3
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi, modelyer, rassom-dizayner			
Jami			1980	66	
3.00.		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
HAMMASI			3600	120	
Poyabzal va aksessuarlar dizayni faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	DNMA1106	Dizayn nazariyasi va metodologiya asoslari	180	6	1
1.04	PALNA1106	Poyabzal va aksessuarlarni loyihalashni nazariy asoslari	180	6	1
1.05	PABL11214	Poyabzal va aksessuarlarni badiiy loyihalash 1,2	420	14	1,2
1.06	PASHVNH12314	Poyabzal va aksessuarlarni shakllantirish vositalarini nazariy hisobi 1,2	420	14	2,3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	1-3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, dizayner			
Jami			1800	60	
Ilmiy faoliyat			1800	60	1,2,3,4
HAMMASI			3600	120	
Sanoat dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	SDZS12312	Sanoat dizaynida zamonaviy stillar	420	14	2,3
1.04	DNMA1106	Dizayn nazariyasi va metodologiyasi asoslari	180	6	1
1.05	LDT1206	Loyixa dizayni taqdimoti	180	6	2
1.06	ITUUT1106	Ilmiy tadqiqot usullari, ularning taxlili	240	8	1
1.07	L3DM1312	Loyihalash va 3D modellash	180	6	2
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1,2,3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	1,2,3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, dizayner			
Jami			1800	60	
Ilmiy faoliyat			1800	60	1,2,3,4
HAMMASI			3600	120	
Mediadizayn turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	FD1106	Fikriy dizayn	180	6	1
1.04	AJN1106	Axboriy jamiyat nazariyalari	180	6	1
1.05	MFvTM1212	Media, film va televizion mahsulotlar	360	12	1,2
1.06	ILTV1208	Ilmiy tadqiqotlarni vizuallashtirish	240	8	1,2
1.07	MTVM1208	Media tahlili va monitoringi	240	8	2,3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1,2,3
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	1,2,3
Kvalifikatsiya		Pedagog- tadqiqotchi, dizayner, mediadizayner			
Jami			1800	60	
Ilmiy faoliyat			1800	60	1,2,3,4
HAMMASI			3600	120	
Kostyum dizayni faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	DNMA1106	Dizayn nazariyasi va metodologiya asoslari	180	6	1
1.04	MK1106	Materiallarni konfeksionalash	180	6	1

1.05	BL11214	Badiiy loyihalash	420	14	1,2
1.06	KLNA12314	Kostyumni loyihalash nazariy asoslari	420	14	2,3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	1-3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, dizayner			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	
To'qimachilik va yengil sanoat dizayni faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	AXT1106	Amaliy xorijiy til	180	6	1
1.04	PTPM1206	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	2
1.05	MK1106	Materiallarni konfeksiyalash	180	6	1
1.06	BL 1206	Badiiy loyihalash	180	6	2
1.07	DNMA 1208	Dizayn nazariyasi va metodologiya asoslari	240	8	2-3
1.08	TYSBLTNA 1308	To'qimachilik va yengil sanoat buyumlarini loyihalash va texnologiyasi nazariy asoslari	240	8	2-3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1-3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	1-3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, to'qimachilik va yengil sanoat dizayneri			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti uchun

Interyer dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		Majburiy fanlar	240	8	
1.01.	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02.	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
Interyer dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	AIXT1106	Arxitekturada innovatsiyalar: xorij tajribasi	120	4	1
1.04	AMDZM1108	Arxitektura muhiti dizaynining zamonaviy muammolari	300	10	1,2
1.05	BIMT1110	Binolarni informatsion modellash texnologiyalari	300	10	1,2
1.06	GD1206	Grafik dizayn	180	6	2
1.07	IJMP1206	Interyer jihozlarini modellash va prototiplash	180	6	2
1.08	TA1204	Turizm arxitekturasi	120	4	2
1.09	PD1304	Parametrik dizayn	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	240	8	3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	240	8	3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, interyer dizayner			
Landshaft dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	AIXT1106	Arxitekturada innovatsiyalar: xorij tajribasi	120	4	1
1.04	AMDZM1108	Arxitektura muhiti dizaynining zamonaviy muammolari	300	10	1,2
1.05	BIMT1110	Binolarni informatsion modellash texnologiyalari	300	10	1,2
1.06	GD1206	Grafik dizayn	180	6	2
1.07	LDOMP1206	Landshaft dizayni obyektlarini modellash va prototiplash	180	6	2
1.08	TA1204	Turizm arxitekturasi	120	4	2
1.09	PD1304	Parametrik dizayn	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	240	8	3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	240	8	3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, landschaft dizayneri			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv sikli, dizayn, interer dizayni, dizayn obyekti, bino, kompozitsiya va rangshunoslik, kompozitsion vositalar, kolorit, ijod qilish metodlari, fazoviy yechim, faktura, konstruksiya, eksteryer, interyer, jihoz, dizayn konsepsiyalari, uslub, san'at uyg'unligi, tahlil, tanqid, globallashuv, modernizm, realizm, postmodernizm, biennale, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot, virtual elektron bilim manbalari, xorijiy til, me'yoriy hujjatlar, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti



Rektor

Mirzoraximov

A.Mirzoraximov

2024-yil “

”

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti



Rektor

Sayfullayev

N.Sayfullayev

2024-yil “

”

KELISHILGAN:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**



Direktor

Boltabayev

M.Boltabayev

2024-yil “

”

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi



Rais

A.Nuridinov

2024-yil “

”

M.O.

MCHJ “ZIYNAT DIZAYN”



Rahbar

Sh.Erkaboyev

Sh.Erkaboyev

2024-yil “

M. O.